



FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF MORAL AND ETHICAL ADVANTAGES IN YOUNG MILITARY PERSONNEL

Bekhzod Rajabov

Researcher

*Center for Spirituality and Enlightenment of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Young military personnel, spiritual and moral qualities, upbringing, internal factors, external factors, military environment, family factors, educational factors, social factors, spirituality, morality, virtue, personal development.

Received: 17.01.24

Accepted: 19.01.25

Published: 21.01.25

Abstract: This scientific article comprehensively examines the factors influencing the formation of spiritual and moral qualities in young military personnel. The article analyzes the concepts of spirituality, morality, virtue and defines their role in military service. Additionally, the influence of internal (individual characteristics, character, aspirations) and external (social, family, educational, and military environment) factors on the spiritual and moral development of young military personnel is analyzed. This article contributes to the improvement of spiritual and moral education in military service.

YOSH HARBIY XIZMATCHILARDA MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Behzod Rajabov

tadqiqotchi

*O’zbekiston Respublikasi ma’naviyat va ma’rifat markazi
Toshkent, O’zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yosh harbiy xizmatchilar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, tarbiya, ichki omillar, tashqi omillar, harbiy muhit, oilaviy omillar, ta’lim omillari, ijtimoiy omillar, ma’naviyat, axloq, fazilat, shaxsiy kamolot.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yosh harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar kompleks tarzda o’rganilgan. Maqolada ma’naviyat, axloq va fazilat tushunchalarini tahlil qilinib, ularning harbiy xizmatdagi o’rni belgilab berilgan. Shuningdek, ichki (individual xususiyatlar, xarakter, intilishlar) va tashqi (ijtimoiy,

oilaviy, ta'lim va harbiy muhit) omillarning yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu maqola harbiy xizmatda ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОРАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ ПРЕИМУЩЕСТВА У МОЛОДЫХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Бехзод Ражабов

Исследователь

Центра духовности и просвещения Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодые военнослужащие, духовно-нравственные качества, воспитание, внутренние факторы, внешние факторы, военная среда, семейные факторы, образовательные факторы, социальные факторы, духовность, нравственность, добродетель, личностное развитие.

Аннотация: В данной научной статье комплексно изучены факторы, влияющие на формирование духовно-нравственных качеств молодых военнослужащих. В статье проанализированы понятия духовности, нравственности и добродетели, а также определена их роль в военной службе. Кроме того, проанализировано влияние внутренних (индивидуальные особенности, характер, стремления) и внешних (социальные, семейные, образовательные и военная среда) факторов на духовно-нравственное развитие молодых военнослужащих. Данная статья вносит свой вклад в совершенствование духовно-нравственного воспитания в военной службе.

Zamonaviy globallashuv davri, axborot texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy qiyofasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yirlarga e'tiborning kamayishi, yoshlari orasida o'zlikni yo'qotish va xulq-atvor buzilishlariga olib kelmoqda. Shu sababli, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, jamiyat barqarorligini ta'minlash, milliy qadriyatlarni saqlash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar, insonning ichki dunyosini boyitadi, jamiyatga foydali va to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradi, shaxsiy rivojlanishga turtki beradi va bu esa, o'z navbatida, mamlakat rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Harbiy xizmat, jamiyat hayotida alohida o'rinn tutadi va harbiy xizmatchilarga o'ziga xos talablarni qo'yadi. Harbiy xizmat davomida, vatanparvarlik, sadoqat, burch, mas'uliyat, halollik, adolatparvarlik, vijdonlilik, intizomlilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy kamoloti uchun o'ta muhimdir. Bu fazilatlar harbiy xizmatda yuqori darajadagi

intizomni ta'minlashda, jangovar tayyorgarlikni oshirishda, harbiy jamoada hamjihatlikni shakllantirishda va jamiyatga sadoqatli xizmat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, harbiy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, harbiy ishning asosiy vazifalaridan biridir.

Yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, ularning xizmatga kirishidan oldingi hayot tarzi, oila muhiti, ta'lif olayotgan maskani, ijtimoiy muhit va shaxsiy xususiyatlari kabi omillarga bog'liq [3]. Zamonaviy jamiyatdagi globallashuv, axborot oqimi, turli madaniyatlar ta'siri, yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Harbiy xizmatga endi kirgan yoshlarning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, salbiy ta'sirlarni bartaraf etish va ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish uchun muhimdir [4].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi, jamiyat va armiya oldida turgan yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid muammolarni o'rganish uchun tushunchalarga ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

Ma'naviyat: Insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, e'tiqodi, maqsadlari va intilishlari tizimi. Bu insonning hayotiy pozitsiyasi, dunyoga bo'lgan munosabati va o'ziga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Ushbu ichki dunyo, insonning axloqiy va ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga asosiy omil hisoblanadi [5].

Axloq: Jamiyat tomonidan qabul qilingan va avlodlar davomida shakllangan xulq-atvor qoidalari va me'yorlar majmui. Axloq, insonning o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatini tartibga soladi, yaxshilik va yomonlikni, to'g'ri va noto'g'rini aniqlashga yordam beradi. Axloqiy me'yorlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi.

Fazilat: Insonning ijobiy xususiyatlari, sifatlari va ko'nikmalari. Fazilatlar, ma'naviyat va axloqning amaliy namoyon bo'lishi hisoblanadi. Ular insonning harakatlarini, qarashlarini va o'ziga bo'lgan munosabatini aniqlaydi. Masalan, halollik, adolatlilik, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik, jasorat, vatanparvarlik va boshqalar. Har bir fazilat insonning shaxsiy rivojlanish darajasini va jamiyatga qo'shgan hissasini belgilaydi [6].

Ushbu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning shaxsiy rivojlanishida bir butun sifatida qaraladi.

Harbiy xizmatda yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish, harbiy xizmatchining shaxsiy va kasbiy sifatlarini belgilaydi. Ular quyidagilarni ta'minlaydi:

Intizomlilik va tartib-qoida: Harbiy xizmatda intizomlilik va tartib-qoidalarga rioya qilish, jangovar tayyorgarlikni oshirish va xavfsizlikni ta'minlash uchun muhimdir.

Jangovar tayyorgarlik: Jasorat, qat'iyatlilik, jasurlik kabi fazilatlar, harbiy xizmatchiga qiyin vaziyatlarda o‘z vazifasini bajarishga yordam beradi.

Jamoaviy hamkorlik: O‘zaro hurmat, do‘stlik va hamkorlik, harbiy jamoada samarali ishslash va muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir.

Vatanparvarlik va sadoqat: Vatanparvarlik va sadoqat tuyg‘ulari, harbiy xizmatchini yuqori darajada mas’uliyatlilik va burch tuyg‘usi bilan ishslashga undaydi.

Adolatlilik va halollik: Adolatlilik va halollik fazilatlari, harbiy xizmatchining shaxsiy va jamoaviy obro‘sini oshiradi, ishonchni ta’minlaydi.

Mas’uliyatlilik va burch tuyg‘usi: Mas’uliyatlilik va burch tuyg‘usi, harbiy xizmatchilarni o‘z vazifalarini vijdonan bajarishga undaydi va xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi [7].

Shunday qilib, yosh harbiy xizmatchilar uchun ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatga foydali xizmat qilishi uchun muhimdir. Bu fazilatlar ularning shaxsiy baxt-saodatiga va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shamdir.

Ichki omillar, shaxsning o‘ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari, uning ichki dunyosini va ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ta’sirini o‘z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

Temperament: Xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik kabi temperament turlari, shaxsning hissiyoti, faolligi, va xulq-atvorida o‘z aksini topadi. Masalan, xolerik shaxs hissiy va tezkor bo‘lsa, flegmatik shaxs xotirjam va sekin harakat qiladi. Temperamentning xususiyatlarini bilish, tarbiyaviy jarayonni individual yondashuv asosida tashkil qilishda yordam beradi.

Qobiliyatlar: Har bir insonning o‘ziga xos qobiliyatları (intellektual, ijodiy, sport va boshqalar) ma’naviy-axloqiy rivojlanishga ham ta’sir ko’rsatadi. Masalan, intellektual qobiliyatları yuqori bo‘lgan insonlar, axloqiy tamoyillarni tezroq anglaydi va qabul qilishi mumkin.

Qiziqishlar: Shaxsning qiziqishlari va moyilliklari, uning diqqatini va e’tiborini jalb qiladigan sohalar, ma’naviy-axloqiy shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, sportga qiziqqan insonlarda iroda, qat’iyat va intizom kabi fazilatlar rivojlanishi mumkin.

Xarakter: Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, uning iroda, mas’uliyat, mehribonlik va boshqa sifatlarida o‘z aksini topadi. Xarakter shaxsning harakatlarini va uning jamiyatga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Ijobiy xarakterli shaxslar (halol, mehribon, mas’uliyatl) ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishga intiladi. Xarakter, tarbiya va hayotiy tajriba orqali shakllanadi, ammo uning ba’zi xususiyatlari tug‘ma bo‘lishi ham mumkin.

Intilishlar: Shaxsning maqsadlari, istaklari va kelajak rejalari uning faoliyatiga, hamda ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga yo‘nalish beradi. Masalan, vataniga xizmat qilishga intilayotgan shaxsda vatanparvarlik, sadoqat va burch tuyg‘ulari rivojlanadi. Ijobiy intilishlar (bilim olish,

yaxshilik qilish, yordam berish) ma’naviy-axloqiy fazilatlarni mustahkamlashga yordam beradi [6].

Ushbu ichki omillar, insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlari rivojlanishining asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Tashqi omillar, shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta’sir etuvchi, atrof-muhit, jamiyat va boshqa ta’sirlardan kelib chiqadi.

Jamiyatning ma’naviy muhit: Jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va urf-odatlar, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qarashlariga bevosita ta’sir qiladi. Sog‘lom ma’naviyat hukm surgan jamiyatda yoshlar ijobiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi va axloqiy jihatdan yetuklashadi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV): Televideniye, radio, internet, gazeta va jurnallar kabi OAV, yoshlarga axborot yetkazish va ularning fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. OAV tomonidan tarqatiladigan ma’lumotlar, yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy me’yorlariga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2].

Madaniy ta’sir: Teatrlar, muzeylar, kutubxonalar va boshqa madaniy muassasalar, yoshlarning ma’naviy va estetik didini rivojlantiradi, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Madaniy merosni o‘rganish, o‘zligini anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oiladagi tarbiya: Ota-onaning o‘rnakligi, oiladagi munosabatlar va tarbiya usullari, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy fazilatlari shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ota-onaning halolligi, mehribonligi, mas’uliyatliligi va o‘zaro hurmati, bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ota-onaning o‘rni: Ota-onsa o‘z farzandlari uchun eng muhim namuna bo‘lishi kerak. Ularning ma’naviy-axloqiy qarashlari, xatti-harakatlari va munosabatlari, farzandlarining kelajakdagi ma’naviy qiyofasini shakllantiradi.

Oilaviy muhit: Oilada hukm surayotgan muhit (mehr-oqibat, hurmat, o‘zaro yordam), yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy oilaviy muhit, bolalarda o‘ziga ishonch, mehribonlik va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Harbiy qismdagи tarbiya: Harbiy qismdagи tarbiya, yosh harbiy xizmatchilarining vatanparvarlik, sadoqat, burch va mas’uliyat kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Harbiy nizomga rioya qilish, o‘quv mashg‘ulotlari, harbiy an’analar va o‘rnak ko‘rsatadigan ofitserlar, harbiy xizmatchilarining ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga yordam beradi.

Shaxsiy namuna: Ofitserlar, serjantlar, ota-onalar, yosh harbiy xizmatchilar uchun ijobiy namuna bo‘lishi kerak. Ularning halolligi, adolatliligi, mas’uliyatliligi va xushmuomalaligi yosh avlodning o‘ziga ishonchini, ma’naviyatini va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga ta’sir qiladi.

Harbiy jamoa: Harbiy jamoada o‘rnatilgan o‘zaro munosabatlар, jamoaviy ish muhiti, hamkorlik va o‘zaro yordam tamoyillari, yosh harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Sog‘lom harbiy jamoa, o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlikni shakllantiradi.

Nizom talablari: Harbiy nizom talablariga qat’iy rioya qilish, yosh xizmatchilarning intizomlilik, mas’uliyatlilik, burchga sadoqat kabi fazilatlarini rivojlanadir. Nizomga rioya qilish, harbiy xizmatda muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Ofitserlar va serjantlar o‘rnakligi: Ofitserlar va serjantlarning shaxsiy o‘rnakligi, intizomliligi, halolligi va xushmuomalaligi, yosh harbiy xizmatchilar uchun muhim tarbiya vositasi hisoblanadi. Ularning kasbiy mahorati, jamoa bilan munosabatlari, shaxsiy namunalari, yosh xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy omillar, yosh harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ijobiy hamda salbiy ta’sirlar ko‘rsatishi mumkin.

Ijobiy ta’sirlarga erishish uchun quyidagi kuchaytirish yo‘llari qo‘llash lozim:

Ma’naviy qadriyatlarni tarqatish: Jamiyatda hukm surayotgan ma’naviy qadriyatlar (vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, halollik) yosh avlodning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy qadriyatlarga asoslangan jamiyat, yoshlarda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Madaniy merosni targ‘ib qilish: Madaniy merosni targ‘ib etish, yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga, vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga va ma’naviy kamolotga erishishiga yordam beradi. Madaniyat va san’at, yoshlar orasida axloqiy didni shakllantiradi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Ijobiy ommaviy axborot vositalarining targ‘iboti: Ommaviy axborot vositalarida taqdim etiladigan ijobiy ma’lumotlar, ma’rifiy ko‘rsatuvalar, hujjatli filmlar va adabiy asarlar, yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyosini boyitadi va ularda yaxshilik, adolat, halollik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Ijtimoiy faollik va ko‘ngillilik bilan harakat qilish: Yoshlarni ijtimoiy hayotga jalg qilish, ko‘ngilli tadbirdarga jalg etish, ularda o‘zaro yordam, mas’uliyat va jamiyatga foydali bo‘lish tuyg‘ularini rivojlanadir.

Salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni kamaytirish yoki yo‘q qilish bo‘yicha takliflar:

Axloqsizlikni targ‘ib etuvchi ommaviy axborot vositalarini cheklash: Axloqsizlik, zo‘ravonlik va ma’naviyatsizlikni targ‘ib etuvchi ommaviy axborot vositalari va internet resurslariga qarshi samarali choralarini ko‘rish.

Salbiy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish: Yoshlarda tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali, salbiy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish.

Ijtimoiyadolatsizlikka qarshi kurashish: Jamiyatda ijtimoiyadolatsizlik, korrupsiya va boshqa salbiy holatlarga qarshi samarali kurashish va ularni bartaraf etish.

Befarqlikka qarshi kurash: Yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirish, ularda fuqarolik mas'uliyatini oshirish va befarqlikka qarshi kurashish.

Yuqoridagi harakatlar bilan parallel ravishda o'quv va tarbiyaviy jarayonini quyidagi ko'rinishlar bilan izchil tshkil etish zarur:

Individual yondashuv: Har bir harbiy xizmatchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarbiya usullarini qo'llash.

Interaktiv ta'lim: O'quv jarayonida interaktiv metodlardan, simulyatsiyalardan va o'yinlardan foydalanish, o'quvchilarning ishtirokini va qiziqishini oshirish.

Shaxsiy o'rnak: O'quvchilar, komandirlar va ofitserlarning shaxsiy o'rnakligiga katta e'tibor berish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligini ta'minlash.

Psixologik tayyorgarlik: Yosh harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish, ularga stressni yengish, qiyin vaziyatlarda o'zini boshqarish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'rgatish.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim va tarbiya jarayonida unumli foydalanish [1].

O'rganilgan omillarning yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ta'sirining umumiyl xulosasi:

Ushbu tadqiqot davomida, yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot natijasida aniqlandi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ta'siri ijobiy hamda salbiy ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Ma'naviyat, axloq va fazilat tushunchalari, harbiy xizmatda o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, harbiy xizmatchining nafaqat harbiy sohadagi harbiy muhit balki shaxsiy xususiyatlari, oilaviy muhiti, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya omillari va uning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim rol o'ynashi tasdiqlandi. O'rganilgan omillar, bir-birini to'ldirib, o'zaro ta'sir etib, yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori.
3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori.
4. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. - Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017.
5. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. - Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008.
6. Harbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: O‘zbekiston Mudofaa vazirligi, 2020.
7. O‘zbekiston Mudofaa vazirligining tegishli buyruqlari va ko‘rsatmalari.